

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA KITOBXONLIKNING O'RNI

Abdisheripova T J

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-son akademik
litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida kitobxonlikning o'rni, ahamiyati va ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Kitob o'qish orqali o'quvchilarda so'z boyligi kengayishi, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, ijodiy tafakkur, matn bilan ishlash ko'nikmalari shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, kitobxonlikni samarali tashkil etish strategiyalari, adabiy ta'limning motivatsion va kognitiv komponentlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari kitobxonlik nutqiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishda asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy kompetensiya, kitobxonlik, akademik litsey, o'qish savodxonligi, muloqot madaniyati, til kompetensiyasi.*

Аннотация: *В статье научно обоснована роль чтения в процессе формирования речевых компетенций учащихся академических лицеев. Анализируется влияние читательской активности на расширение словарного запаса, развитие критического и творческого мышления, формирование культуры общения и навыков работы с текстом. Также представлены эффективные стратегии организации читательской деятельности и интеграция литературного образования с современными педагогическими технологиями. Результаты исследования показывают, что чтение является одним из ключевых факторов развития всех компонентов речевой компетентности.*

Ключевые слова: *речевая компетенция, читательская культура, академический лицей, грамотность чтения, коммуникация, языковая подготовка.*

Abstract: *This article scientifically examines the role of reading in developing the speech competencies of academic lyceum students. It analyzes how reading activities contribute to vocabulary expansion, critical and creative thinking, communication culture, and text-processing skills. The study also highlights effective strategies for organizing reading practices and integrating literary education with modern pedagogical technologies. The findings demonstrate that reading is one of the essential factors influencing the development of all components of speech competence.*

Keywords: *speech competence, reading literacy, academic lyceum, communication skills, language development.*

Bugungi globallashuv jarayonida nutqiy kompetensiyaning rivoji o'quvchilarning ta'lim sifati, intellektual salohiyati va kasbiy muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xususan, akademik litsey o'quvchilari uchun tilni ongli ravishda qo'llay olish, muloqotda ravon, izchil va asosli fikr bildirish, ilmiy-uslubiy matnlarni yaratish ko'nikmalari zarur.

Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda kitobxonlikning o'rni beqiyosdir, negaki kitobxonlik nafaqat lingvistik bilimlarni kengaytiradi, balki o'quvchining dunyoqarashini boyitadi, mustaqil fikrlash va ijodiy tahlil malakasini rivojlantiradi.

Shu bois mazkur tadqiqotda akademik litsey o'quvchilari nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kitobxonlikning metodik va amaliy asoslari o'rganiladi.

Avvalo, nutqiy kompetensiya nima va u qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligiga to'xtalib o'tsak:

1. Nutqiy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Nutqiy kompetensiya mazmunan ko'p qirrali bo'lib, tilshunoslikda tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish orqali o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilar badiiy adabiyotlarni shunchaki mutolaa qilibgina qolmasdan, o'qigan asarlarini so'zlab bera olishi, unga shaxsiy fikr bildirishi, hatto o'zi ijod qilishga harakat qilishida mazkur kriteriyalardan foydalanish samarali natija beradi. Bu borada nutqiy kompetensiyaning quyidagi komponentlari amalga oshadi:

1. Leksik kompetensiya – so'z boyligi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga oid birliklar hamda frazeologizmlar bilan ishlash.

2. Grammatik kompetensiya – grammatik me'yorlarga amal qilish, sintaktik izchillikni ta'minlash.

3. Diskursiv kompetensiya – matn yaratish, mantiqiy bog'liqlik, nutqning izchilligi.

4. Kommunikativ kompetensiya – muloqot maqsadiga mos til vositalarini tanlash.

5. Pragmatik kompetensiya – nutqning maqsadga yo'naltirilganligi, vaziyatga mosligi.

Albatta, ushbu kompetensiyalarning samarali shakllanishi o'quvchining o'qish madaniyatiga, kitob bilan muntazam ishlashiga bevosita bog'liqdir.

2. Kitobxonlikning nutqiy kompetensiyaga ta'siri

a) so'z boyligining kengayishi

Kitob o'qish o'quvchilarga yangi leksik birliklar, murakkab sintaktik konstruksiyalar va badiiy tasvir vositalarini o'zlashtirish imkonini beradi. Adabiy matnlar orqali o'quvchilar tilning uslubiy boyliklarini, metafora, epitet, tashbeh kabi vositalarni amaliy qo'llashni o'rganadilar;

b) mantiqiy va mustaqil fikrlashning shakllanishi

Kitobxonlik o'quvchilarni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi intellektual layoqatlarini oshirishga undaydi. Badiiy asarlar orqali obrazli fikrlash, ilmiy matnlar orqali esa analitik fikrlash rivojlanadi;

d) muloqot madaniyati va nutq ravonligi

Kitob o'qigan o'quvchi o'z fikrini aniq va izchil ifodalashga intiladi. Dialog va monolog shakllari, uslublar xilma-xilligi ularda nutq madaniyatini shakllantiradi.

e) matn bilan ishlash ko'nikmalari

Kitobxonlik quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

- annotatsiya tuzish
- reja tuzish
- tahlil va talqin
- fikrni bayon etish
- manbalar bilan ishlash

Bu ko'nikmalar akademik litsey o'quvchilari uchun, ayniqsa, muhimdir.

3. Akademik litsey o'quvchilarida kitobxonlikni shakllantirish strategiyalari a) motivatsion yondashuv

O'quvchini kitob o'qishga jalb etish uchun:

- zamonaviy va yoshlar psixologiyasiga mos adabiyotlarni tanlash;
- "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlari;
- o'quv jamoalari, klub shaklidagi o'quvchilar guruhlarini tashkil etish;
- yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- "Zakovat" o'yinlarini tashkil etish.

b) pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish

- klaster
- insert
- konseptual xaritalar
- aqliy hujum
- elektron kutubxonalar bilan ishlash kabilar orqali yuqori samaradorlikka erishish

mumkin.

d) raqamli kitobxonlikni rivojlantirish

Elektron resurslar, audio kitoblar, interaktiv platformalar o'quvchilarda o'qish madaniyatini zamonaviy shaklda rivojlantiradi.

4. Kitobxonlik orqali nutqiy kompetensiyani baholash mezonlari:

1. Leksik boylik darajasi
2. Grammatik to'g'rilik
3. Uslubiy moslik va mantiqiy izchillik
4. Matn yaratish va qayta hikoya qilish ko'nikmalari
5. Og'zaki va yozma nutqning ravonligi hamda imloviy savodxonlik

Ushbu mezonlar asosida o'quvchilar nutqiy kompetensiyasining shakllanish dinamikasi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litsey o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kitobxonlik asosiy metodik, psixologik va tarbiyaviy omil sifatida yetakchi o'rin tutadi. Demak, kitob o'qish o'quvchilarda:

- boy so'z zaxirasini,
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni,

- matn bilan ishlash ko'nikmalarini,
- muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Shu sababli akademik litseylar ta'lim jarayonida kitobxonlikni tizimli va maqsadli tashkil etish o'quvchilar til kompetensiyasining kompleks rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga, ularning intellektual jihatdan rivojlangan, sog'lom fikrlovchi shaxs sifatida ulg'ayishiga yordam beradi.

Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. " Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyish. 2017 y.
2. Abdullayeva B. O'zbek tilshunosligi va nutq madaniyati. – Toshkent: "Fan", 2020.
3. Shodmonov U., Mamatqulova D. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.
4. Qodirova M. Nutqiy kompetensiya va uni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: "Innovatsiya ziyo", 2022.
5. Krashen S. The Power of Reading. Libraries Unlimited, 2021.
6. Cummins J. Language, Power and Pedagogy. Multilingual Matters, 2020.
7. UNESCO Reading Literacy Framework, 2019.
8. Karimov N. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2023.